

**BADIIY ASARLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA
QILISHDA LINGVISTIKMADANIY JIHATLAR**

Abduvaxobova Maftuna

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy
Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Iroda Jo'rayeva

Annotatsiya. Ushbu tezisda badiiy asarlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik va madaniy jihatdan tahlili haqida so'z boradi. Bundan tashqari, ingliz tili va o'zbek tilidagi ushbu tafovutlar mashhur yozuvchi Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asari misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ingliz tili, tarjimon, grammatik tahlil, leksik, semantic sath, madaniy yondashuv.

Darhaqiqat, bu olamda insoniyat bilan boshqa mavjudotlar orasida bir tafovut mavjud. Bu odamlar orasida o'zaro aloqa zanjirini yaratishga xizmat qiladigan hamda ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, yangiliklarni o'zida aks ettiradigan til hisoblanadi. Hatto buyuk yozuvchi, shoirlar -bari o'zlarining g'oyalarini aynan mana shu zabon orqali yozilgan asarlari bilan o'z xalqiga yetkazgan. Hozirda esa tajimonlik sohasidagi rivojlanishlar xalqaro maydonda turli millat vakillari o'rtasida badiiy adabiyot sohasidagi fikrlarning almashinishiga yordam bermoqda.

Asarlarni tarjima qilishning yana bir muhim jihati shuki, har bir tilning o'z grammatik, leksik, semantik sathi bor bo'lib, bu tarjimonlardan alohida e'tibor talab qiladi. Adabiyot durdonasi bo'lgan ingliz yozuvchisi Jek London qalamiga mansub "Hayotga muhabbat" ("Love of life") asarini morfologik jihatdan ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, ingliz tili va o'zbek tili alohida til oilalariga mansub, ya'ni o'zbek tili- Oltoy tillar oilasi, ingliz tili esa Roman-German til oilasiga mansubdir. Shu bois gap tuzilishi (structure) ham bir-biridan keskin farq qiladi. Tilmochlar oldidagi eng kata to'siq shuki, ingliz tilidagi gapni o'zbek tilidagi qolipga tushirgan holda tarjima qila bilishdir. Aytaylik quyidagi gapni ingliz va o'zbek tilidagi variantlarini misol keltiramiz va solishtiramiz. [2]

He searched little ponds for frogs and dug up the earth with his nails for worms, though he knew in spite that neither frogs nor worms existed so far north.

U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo'lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, tirnoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

O'zbek tilida gapni morfologik tahlili quyidagi jadvalda aks ettirilgan bo'lib, bu singari 10 ta gap tahlil qilindi. Natija shundan iborat bo'ldiki, ingliz tilidagi ba'zi so'zlar o'zbek tliga tarjima qilinganda, ularning grammatik sathida ba'zi farqlar

ko'zga tashlangan.

Leksemalar	Morfologik tahlil
U va bunday	Olmosh
uzoq	Sifat
shimolda	Ot + kelishik qo'shimchasi
Qurt, qurbaqa	Ot
Bo'lmasligini	Ot + egalik+tushum kelishi
Bilsa	Fe'l
Chuqurchalardan	Ot +lug'aviy+chiqish kelishi
Axtarar va qidirar	Fe'l
Tirnoqlari	Ot +lug'aviy+egalik
Bilan	Ko'makchi
Yerni	Ot+tushum kelishigi
Titkilab	Fe'l
Edi	To'liqsiz fe'l

Misol uchun yuqoridagi ikki gapdan ko'rinib turibdiki, little ponds birligi o'zbek tiliga chuqurchalar deb tarjima qilingan, ya'ni ikki ot o'zbek tilida bir ot orqali ifoda qilingan. Yana bir yaqqol misol shuki, so far ingliz tilida ravish (adverb) so'z turkumiga mansubdir. Tarjima mobaynida esa uzoq so'zi sifat bo'lib kelgan. Umuman olganda, har bir tilning o'z lingvistik imkoniyatlari mavjud bo'lib, bir tildan boshqasiga o'girilganda bu farqlar namoyon bo'ldi. Yuqoridagilar ummondan bir parcha edi, xolos. Aslida lingvistik tahlil o'z ichiga leksikologik tahlil, frazeologik tahlil, semasiologik tahlil, fonetik tahlil, morfem tahlil, sintaktik tahlil kabi turlarni o'z ichiga oladi. [3]

Ushbu asar mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, Jek London insondagi matonatni, jasurlikni hamda yashash eng oliy ne'mat ekanligini math etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bosh qahramon yashash ilinjida, tirik qolish maqsadida juda ko'p qiyinchiliklarni yengadi. Albatta, asar g'oyasi umuminsoniy tuyg'ular bilan boyitilgan. Shunga qaramasdan, har bir millatning o'z yashash tarzi, madaniyati va urf-odatlarini mavjud. Masalan, toponimlar va shaxs nomlari o'zgarishsiz tarjima qilingan: Bill, Diz daryosi, Titchinichili ko'li, Gudzon ko'rfazi, "Bedford" kemasi kabilar. Va bu so'zlar faqat ingliz tilida ma'noga ega bo'ladi. [1]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, har qanday asarni tarjima qilish mobaynida yozuvchining g'oyasini tushunish muhimdir. "Hayotga muhabbat" hikoyasi orqali ingliz tili va o'zbek tilining grammatikasida bir qancha farqlar va o'xshashliklar borligi tahlil qilindi. O'z navbatida, tarjima jarayonida madaniy jihatlariga ham e'tibor qaratish kerak, ya'ni asar g'oyasini o'zbek xalqi mentalitetiga mos ravishda o'zbek tiliga

o'g'irish tilmoch mahoratiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. TRANSFORMATION IN TRANSLATING LITERARY TEXTS FROM ENGLISH INTO UZBEK. / F. Kariyeva. / International scientific journal«MODERN SCIENCE AND RESEARCH». Toshkent- 2023. 465 page.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Lingvistik_tahlil

3. JEK LONDONNING “HAYOTGA MUHABBAT” (“LOVE OF LIFE”) ASARIDAGI MORFOLOGIK TRANSFORMATSIYALARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI / M.Ismoilova / Oriental Renaissance: Innovativa, educational, natural and social sciences. April 2022. 660 b.

4. LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: A COPREHENSIVE ANALYSIS / S.T.Aripova / SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL JURNAL. 12 December 2023. 37 page.

5. Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles / Ortiqov Rustamjon Abdumalik o'g'li / International Journal of Academic Management Science Research. November - 2020, 92-95 Pages.